

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rningbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farkod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rghanish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzARB mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief: Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafо Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Botir Elov, Shahlo Hamroyeva, Oqila Abdullayeva, Zilola Husainova, Nizomaddin Xudayberganov	
Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uyg'ur, o'zbek tillari misolida).....	6

Gültəkin Əliyeva	
Cümlədə konversiyanın sintaktik funksiyası.....	40

Rafiqjon Zaripov	
Til menejmenti va tilni rejalshtirish tushunchalarining lingvosiyosiy yondashuvlari.....	57

Fizuli Mustafayev	
Kino dilində Azərbaycan toponimləri.....	69

Shodiya Rahimova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida attributiv qo'shma so'z yoxud "bahuvrihi"larning o'rganilishidagi ba'zi muammolar.....	85

Adabiyotshunoslilik

Gulbahor Ashurova	
Kichik nasriy asarlarda Alisher Navoiy siyosining talqin etilishi.....	97

Oyjamol Boboqulova	
Navoiy ijodida rind obrazi va estetik ideal masalasi.....	111

CONTENT

Linguistics

Botir Elov, Shahlo Hamroeva, Oqila Abdullaeva, Zilola Husainova, Nizomaddin Khudayberganov	
The Problem of pos Tagging and Stemming for Agglutinative Languages (turkish, uyghur, uzbek languages).....	6

Gultekin Aliyeva

Syntactic function of conversion in a sentence.....	40
---	----

Rafiqjon Zaripov

Lingvopolitical approaches to the concepts of language management and language planning.....	57
---	----

Fizuli Mustafayev

Azerbaijani toponyms in the language of cinema.....	69
---	----

Shodiya Rahimova

Some problems in the study of attributive compound words or "bahuvrihi" in Uzbek and English linguistics.....	85
--	----

Literature

Gulbahor Ashurova

Interpretation of the character of Alisher Navoi in small prose works.....	97
--	----

Oyjamol Bobokulova

The image of the rind and the issue of the aesthetic ideal in Navoi's work.....	111
--	-----

Til menejmenti va tilni rejalashtirish tushunchalarining lingvosiyosiy yondashuvlari

Rafiqjon Zaripov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada til menejmenti, tilni rejalashtirish atamalari tavsiflari bilan bir qatorda til muhandisligi, glottopolitika, tilni rivojlantirish, tilni tartibga solish birliklari mazmun-mundarijasi ham atroficha yoritildi. Til menejmenti, tilni rejalashtirish tushunchalari lingvistika, siyosat va menejment fanlari kesimida tahlilga tortilib, ularda keltirilgan ta'riflar integratsiya qilinadi. Til menejmenti, tilni rejalashtirish tushunchalarining fanlararo mohiyati ochib berildi. Shuningdek, tilni rejalashtirish lingvistik mezonlarga aloqador ekanligi, uning tashkillashtirilishi aloqa muammolariga bog'liq ravishda amalga oshirilishi, tilni rejalashtirish atamasи va unga aloqador ma'nolar bevosita jamiyat bilan bog'liq ekanligi qator jahon tilshunoslari, sotsiologlari, kommunikatsiya mutaxassislari va siyosatshunoslarning qarashlari asosida dalillandi va muayyan xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: *til menejmenti, tilni rejalashtirish, lingvosiyosiy yondashuv, til muhandisligi, glottopolitika, tilni rivojlantirish, tilni tartibga solish.*

Kirish

Jahon tilshunoslida ayrim olimlar til taraqqiyotida amalga oshiriladigan harakatlar jarayoni uchun "reja" va "rejalashtirish" so'zining sinonimi sifatida "siyosat" so'zini ishlatib, "Til siyosati va rejalashtirish" tushunchalarini qo'llashni afzal ko'rishadi. Aslida muarakkablik "siyosat" leksemasining noaniqligidadir. Bizningcha tilni boshqarish qarori siyosat hisoblanadi.

¹Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: zaripovrafiqjon1@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2924-4346

Iqtibos uchun: Zaripov, R.E. 2023. "Til menejmenti va tilni rejalashtirish tushunchalarining lingvosiyosiy yondashuvlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 57–68.

Rejalashtirish 1950 va 1960-yillarda ijtimoiy muammolarni tuzatish uchun qo'llangan atama edi. Ijtimoiy va iqtisodiy rejalshtirishning keyingi muvaffaqiyatsizliklari rejalshtirish tushunchasidan doimiy foydalanishni to'xtatdi.

Tilni rejalshtirish atamasi

Tilni rejalshtirish atamasi 1960-yillarda mustamlakachilik siyosatiga barham berilishi fonida mustaqillikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarni modernizatsiya qilish bilan bog'liq jarayon uchun ishlab chiqilgan. U davrning ijtimoiy va iqtisodiy rejalshtirishiga asoslangan, "o'z ixtiyorida samarali texnikaga ega bo'lgan texnik mutaxassislarining g'amxo'rliqi tarzida, asosan mafkuradan mustaqil bo'lgan obyektiv jarayon sifatida" [Nekvapil 2006, 92] o'ylab topilgan. Bu tegishli davlat siyosiy organlarining roziligini talab qilsa-da, "muammolarni oqilona hal qilish" sifatida qaraldi. Vaqt o'tishi bilan til muhandisligining murakkabligi tan olindi. Shuning uchun u "har xil kengayish darajasidagi keng doiradagi turli xil ijtimoiy-lingvistik vaziyatlarni" o'z ichiga olishi kerak edi.

Turli xil manfaatlar va aholi guruahlari (ayollardan qoch-qinlargacha), turli xil kommunikativ sharoitlarda (ommaviy axborot vositalari, kanallar, axborotni qayta ishslash) va birinchi navbatda, turli mafkuraviy va real, global va mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoitlarni [Jernudd, Neustupny 1997, 136]. Keyinchalik bunday yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan, kengroq soha Jernudd [Jernudd 1987, 69] tomonidan rasmiy ravishda "tilni boshqarish" deb nomlandi. Bu bilan "tilni rejalshtirish" atamasini 1970-yillardagi til muammolarini hal qilish usullari sifatida tarixda qoldirdi.

Til muhandisligi, glottopolitika, tilni rivojlantirish, tilni tartibga solish birliklari

Tilni rejalshtirish turli maqsadlarga qaratilgan bo'ladi va o'z ichiga turli xil vositalarni qamrab oladi. Tilni rejalshtirish tadqiqotlarda paydo bo'lgan birinchi atama emas. Tadqiqotlarda bunday faoliyat turini atash uchun keltirilgan birinchi atama sifatida til muhandisligi kiritilganligi qayd etiladi [Miller 1950, 720]. Shuningdek ushbu faoliyatni ifodalash uchun glottopolitika, tilni rivojlantirish [Noss 1967], tilni tartibga solish [Gorman 1973] birliklaridan foydalanilgan.

Til siyosati ba'zan tilni rejalshtirishning sinonimi sifatida namoyon bo'ladi, lekin ko'pincha tilni rejalshtirish maqsadlariga

ishora qiladi. Tilni rejalashtirish atamasi axborot byulleteni (Tilni rejalashtirish axborotnomasi), jurnal (Til muammolari va tilni rejalashtirish), (Rubin va Jernudd 1971; Rubin va Shuy 1973, Fishman 1974), Gupta, Fishman va Ferguson 1977, Kobarrubias, Fishman 1983), (Rubin va Jernudd 1977) izlanishlarida qo'llangan.

Tilni rejalashtirish atamasini fanga 1959-yil Haugen kiritgan. U tilni rejalashtirishni "bir xil bo'limgan nutq jamoasida yozuvchilar va notiqlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun me'yoriy orfografiya, grammatika va lug'at tayyorlash faoliyati" [Haugen 1959, 8], deb ta'riflagan. Keyinchalik u bu faoliyatni tilni rejalashtirish natijalari, tilni rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishning bir qismi sifatida ko'rib chiqdi [Haugen 1966, 52].

Shundan so'ng bir qator olimlar tilni rejalashtirish atamasini turlicha talqin qilib, semantik mundarijasini boyitishga harakat qildilar. Qayd etish joizki, tilni rejalashtirishga berilgan ta'riflarning katta qismi til menejmentiga aloqador bo'lib, ularning ayrimlarida tilni boshqarish tamoyillariga xos jihatlar e'tirof etilgan. Quyida ularning bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Tilni rejalashtirish tushunchasi tahlili

Avvalambor, Haugennenning ushbu tushunchaga bergen navbatdagi ta'rifini ko'rib chiqaylik: "Men ta'riflaganimdek, tilni rejalashtirish atamasi til akademiyalari va qo'mitalarining me'yoriy ishlarini, til taraqqiyotining barcha shakllarini va rivojlantirish takliflarini o'z ichiga oladi. Bu til islohoti yoki standartlashtirishdir" [Haugen 1969, 711].

Ushbu ta'rifda olim tilni rejalashtirishni til islohoti, tilni standartlashtirish deb hisoblashini ta'kidlamoqda. Shu bilan bir qatorda tilni rivojlantirish yo'lidagi turli harakatlarni anglatishini qayd etmoqda va buni asosan til taraqqiyoti yo'lida tashkil etilgan muassasalar tashkillashtirishi nazarda tutilmoqda. Bu o'rinda til menejerezatsiyasiga xos bo'lgan xususiyatlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha til taraqqiyoti davlat tomonidan turli siyosiy qarorlar bilan boshqariladi va ushbu me'yorlarni ishlab chiqishda tilni taraqqiy ettirish yo'lida tashkil etilgan muassasalar o'z takliflarini berishi mumkin va davlatning tilni boshqarish yo'lida qabul qilingan qarorlarini amaliyotga tatbiq etadi.

Tilni rejalashtirish atamasini Torbern quyidagicha izohlaydi: Tilni rejalashtirish bir guruh odamlarning til xulq-atvorini o'zgartirish uchun til bo'yicha birlashtirilgan bilimlarni qo'llashga

harakat qilganda yuzaga keladi [Thorburn 1971, 254]. Ushbu ta'rifda muayyan darajada rejali harakat nazarda tutilmoxda. Chunki kishilarning xulq-atvorini o'zgartirish uchun rejali faoliyatning amalga oshirilishi yetarlicha samara berishi mumkin. Buning isbotini mustamlakachilik davri voqeliklari misolida ko'rishimiz mumkin. Odatda mustamlakachi davlatlar o'z tilini mustamlaka mamlakat ijtimoiy hayotida qo'llanishi, amaliyoti yo'lida qator rejali harakatlarni amalga oshirishgan. Hozirgi kunda ham ayrim gegemon mamlakatlar faoliyatida bunday holatlar uchramoqda.

Tilni rejalashtirish atamasining nisbatan mukammal ta'rifini Rubin va Jernudd tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Ammo ushbu izohda ham til boshqaruviga xos bo'lgan ma'nolarni ko'ramiz. Aslida bu ehtimoliy yuz berishi mumkin bo'lgan holat. Chunki til siyosati, tilni rejalashtirish va til menejmenti o'zaro aloqador tushuncha va hodisalar bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi. Shunday bo'lsada ularning semantik mundarijasini belgilab olish, voqelikka mos hollarda ulardan birini qo'llashimiz maqsadga muvofiq.

Qayd etilgan olimlarning qarashlarini keltirishdan avval bu atamalar borasidagi pozitsiyamizni qisqacha bildirsak. Bizningcha til menejmenti tilni rejalashtirish va til siyosatini qamrab oluvchi tushuncha hisoblanadi. Chunki til siyosati mamlakatda til hodisalarini boshqarish va tartibga solish uchun olib boriladi va bu boshqaruv jarayoni rejali tarzda tashkillashtiriladi. Biz ta'kidlagan jihatlarning ayrim semalarini e'tirof etilgan olimlar qarashlarida ham kuzatish mumkin. Tilni rejalashtirish - bu ataylab tilni o'zgartirish; ya'ni bunday maqsadlar uchun tashkil etilgan yoki bunday maqsadlarni amalga oshirish uchun vakolat berilgan tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan til kodlari, so'zlashuv tizimlarini o'zgartirish. Shunday qilib, tilni rejalashtirish muammoni hal qilishga qaratilgan va eng yaxshi (yoki optimal, eng samarali) qarorni topish, til muammolarini hal qilish uchun alternativalarni shakllantirish va baholash bilan tavsiflanadi [Rubin, Bjorn, Jernudd 1971]. Bu o'rinda ataylab til kodlarining o'zgartirilishi tilni rejalashtirishni yuzaga chiqarishi ta'kidlanmoqda. Bu maxsus vakolatga ega yoki shu yo'lda tashkillashtirilgan vakolatli muassasalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin ekanligi qayd etilmoqda. Izohning ikkinchi qismi esa bir qarashda birinchi qismni to'ldirmoqda. Ammo e'tibor bersak, bu qismda tilni rejalashtirish til muammolarini hal qilishga qaratilgan faoliyat sifatida qaralmoqda va til muammolari yuzaga kelganda, muqobil yechimlarni berish yo'llarini berish tizimi sifatida ko'rsatilmoqda. Bu muayyan darajada til boshqaruvi bilan bog'liq

jarayon hisoblanadi. Chunki til menejmentida boshqaruvning bir necha ko'rinishlaridan mamlakatning lingvistik makoniga mos turi tanlab olinadi va ijtimoiy voqelikka qarab o'zgartirishlar kiritib borilaveradi.

Tilni rejalashtirish atamasi nafaqat lingvistikaning, balki siyosat va menejment bilan ham bog'liq faoliyat ekanligi Jernudd va Das Gupta ta'riflarida ham e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin: Biz rejalashtirishni idealistik va faqat lingvistik faoliyat sifatida emas, balki jamiyatdagi til muammolarini hal qilish uchun siyosiy va ma'muriy faoliyat sifatida belgilaymiz [Jernudd, Das Gupta 1971, 211]. Rejalashtirish - bu jamiyatdagi boshqa muammolar bilan ham bog'liq ekani va uni faqatgina lingvistik mezonlar bilan emas, balki siyosiy va ma'muriy mezonlar bilan birgalikda hal etish samarali ekani olimlar tomonidan qayd etilmoqda.

Ayrim olimlar bu qoidaga zid ravishda tilni rejalashtirishni asosan lingvistik mezonlarga bog'liq ekanligini ta'kidlashadi: Tilni rejalashtirish atamasi, mening fikrimcha, tilning orfografik, grammatik, leksik yoki semantik xususiyatlarini tanlash, kodlash va ba'zi hollarda ishlab chiqish va kelishilgan korpusni tarqatish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni ifodalash uchun eng mos keladi [Gorman 1973, 73]. Gormanning ta'rifida asosiy e'tibor tilning strukturasini rejalashtirishga qaratilgan bo'lib, tilning orfografik, grammatik, leksik yoki semantik xususiyatlarini tanlash, kodlash va ba'zi hollarda ishlab chiqish rejalashtirishning asosini tashkil etishi qayd etilmoqda. Shuningdek, shu paytgacha ko'rib chiqqan ta'riflarda uchramagan holat, tilni rejalashtirish korpusga tatbiq etilishi mumkin ekani ta'kidlanmoqda.

Bizningcha tilni rejalashtirish odatda muayyan qonuniyatga asoslangani holda biror-bir maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Tilni rejalashtirish holatlari muayyan mustamlakachi mamlakat tomonidan mustamlaka hududda istiqomat qiluvchi millatlar ijtimoiy hayotidagi lingvistik makonni, holatni tartibga solish va o'z tilini rejali asosda singdirish harakati hisoblanadi. Shu bilan birga mustaqillik yo'liga qadam qo'ygan millatning o'z ona tilini rejali tarzda millat ijtimoiy hayotiga tatbiq etish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu jarayon ham til menejerezatsiyasiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Tilni rejalashtirish deganda, jamiyatning til resurslarini belgilangan vaqt jadvalida tashkil etish va rivojlantirish uchun tizimli ravishda ishlab chiqilgan tadbirlar majmui tushuniladi [Das Gupta 1973, 157] deb yozadi Das Gupta. Ushbu izohda

jamiyat til resurslarini rivojlantirish yo'lidagi aniq xatti-harakat va bunga bog'liq ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar ma'jmu'i rejalahtirishni tashkil etishi etirof etilmoqda.

Til siyosati tadqiqi bo'yicha fundamental izlanishlar muallifi, ijtimoiy lingvistika bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borgan Fishman ham tilni rejalahtirish masalasiga e'tibor qaratadi va bu jarayonni milliy darajadagi lingvistik muammolarni hal qilish bo'yicha olib boriladigan ilmiy ishlarga bog'laydi. Tilni rejalahtirish atamasi milliy darajada til muammolarini hal qilishning tashkiliy izlanishlarini anglatadi [Fishman I974 (b), 79].

Dunyoda 7000 dan ortiq tillar mavjud. Ularni tartibga solish, boshqarish muayyan darajada rejali harakatlarni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda globallashib borayotgan dunyoda xalqaro hamjamiyat orasida qo'llanadigan tillarni boshqarish va ularni me'yorlashtirish zarurati ortib bormoqda. Chunki insonlarning o'zaro muvaffaqiyatli muloqotini amalga oshirish bilan bir qatorda, tillar turli madaniyatlar va qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu jihatlarni diplomatik yo'l bilan boshqarish uchun jahon tillari talablariga to'la mos keluvchi tillarni shakllantirish va boshqarish, ularni tartibga solish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biz bu o'rinda sun'iy tillarni nazarda tutmayapmiz, mavjud xalqaro tillarni yanada mukammallashtirish va ularning menejmentini ta'kidlamoqdamiz. Shu bilan birga bir mamlakat hududida ham turli tillarga ega millatlar yashaydi. Ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun yetarli darajada rejali harakatlar amalga oshirilishi lozim. Bu jihat Taulining ta'rifida o'z aksini topgan. Tilni rejalahtirish - mavjud tillarni tartibga solish va takomillashtirish yoki yangi umumiy mintaqaviy, milliy yoki xalqaro tillarni yaratish bo'yicha uslubiy faoliyat [Tauli 1974, 56]. Bu o'rinda yuqorida qayd etgan jihatlarimizdan tashqari yangi mintaqaviy, milliy yoki xalqaro tillarni yaratish masalasi va ular bo'yicha uslubiy harakatlarni amalga oshirish tilni rejalahtirish sifatida e'tirof etilmoqda. Biz ta'rifning ushbu qismiga qo'shilmaymiz. Chunki, yangi mintaqaviy, milliy yoki xalqaro tillarni yaratish anchagina murakkab jarayon bo'lish bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazardan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bizningcha yangi tillar menejmenti yoki rejalahtirilishidan ko'ra, mavjud tillar boshqaruvini takomillashtirish samaraliroq va afzalroq.

Karamning tilni rejalahtirish atamasi ostida mujassam-lashtirgan ma'nolar til boshqaruvi jarayonlariga aloqador. Bu

ta'rifdan anglashiladiki, tilni rejalashtirish milliy til muammolarini bartaraf etishga qaratilgan faoliyat. Til boshqaruvida ham bu yuqori ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy til muammolarini hal etmay turib, davlat tili menejerezatsiyasini amalga oshirish murakkab jarayonga aylanishi tabiiy. Karamga ko'ra tilni rejalashtirish odatda milliy miqyosda til muammosini hal qilishga harakat qiladigan va til shakliga yoki tildan foydalanishga e'tibor qaratadigan faoliyatni anglatadi [Karam 1974, 105].

Tilni rejalashtirish aloqa muammolariga bog'liq ravishda amalga oshirilishi mumkin. Aloqa muammolari deganda, odatda so'zlashuvchilarining kommunikatsiya jarayonlarida til kodlarini qo'llash bilan bog'liq yoki til birliklarini tushunish bilan yuzaga keladigan muammolar nazarda tutiladi. O'z navbatida bu jihatlarni bartaraf etish zarur. Bu esa muayyan rejali harakatlarni taqozo qiladi. Shuningdek, bu jihat til vazifalarini o'zgartirish bilan ham bartaraf etilishi mumkin. Bunday faoliyatlar odatda hukumat yoki vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Vaynshteyn tilni rejalashtirish atamasiga bergen ta'rifida bu jihatlarni qamrab olishga harakat qilgan. Tilni rejalashtirish deganda aloqa muammolarini hal qilish maqsadida tilning o'zini o'zgartirish yoki jamiyatdagi til funksiyalarini o'zgartirish bo'yicha hukumat tomonidan ruxsat etilgan, uzoq muddatli va ongli ravishda amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar tushunilishi mumkin [Weinstein 1980, 55]. Ta'rifda yana bir jihat anglashiladiki, tilni rejalashtirish jarayoni uzoq muddatli jarayon hisoblanadi.

Ayrim til sotsiologlari tilni rejalashtirish atamasi va unga aloqador ma'nolarni bevosita jamiyat bilan bog'laydi. Tilni rejalashtirish til muammolariga tizimli, nazariy, oqilona va uyushgan jamiyat e'tiborini anglatadi [Neustupny 1983, 1].

Biz yuqorida til siyosati va tilni rejalashtirish tushunchalari ayrim olimlar tomonidan bir xil maqomda qo'llanganligini ta'kidladik. Xususan, Prator, Markeening tadqiqotlarida til siyosati tushunchasi ostida quyidagi ma'nolar mujassamlashishi qayd etiladi. Til siyosatini ishlab chiqish tilni o'rgatish va undan foydalanishga oid qarorlarni hamda bu vakolatga ega bo'lganlar tomonidan boshqalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun ularni puxta ishlab chiqishni o'z ichiga oladi [Markee 1986]. Ushbu ta'rifda til siyosatiga xos jihatlar etirof etilgan bo'lsa-da, qayd etilgan jihatlar ishlab chiqish bilan aloqador. Bu esa, tilni rejalashtirish va boshqarish harakatlari bilan bog'liq.

Tilni rejalashtirish tavsiflari tasnifi

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tilni rejalashtirish tadqiqotchilar tomonidan quyidagi to'rt xil yondashuv asosida tavsiflangan:

1. Til boshqaruviga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari;
2. Til qurilishiga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari;
3. Til korpusiga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari;
4. Til funksiyalarini o'zgartirishga qaratilgan tilni rejalash-tirish tavsiflari.

Tilni rejalashtirish ta'riflarining nisbiy afzalliklari va kamchiliklarini o'rganib chiqqan Cooper quyidagilarni e'tirof etadi: Tilni rejalashtirish - bu boshqalarning til kodlarini o'zlash-tirish, tuzilishi yoki funksional taqsimotiga nisbatan xatti-harakatlariga ta'sir qilish uchun ataylab qilingan harakatlarni anglatadi [Cooper 2000, 45].

Xulosa

Yuqorida qayd etilgan ba'zi ta'riflar til menejmenti va tilni rejalashtirishni hukumatlar, davlat vakolatli idoralari yoki boshqa vakolatli organlar, ya'ni tilni tartibga solish bo'yicha davlat vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bilan cheklaydi (Rubin va Jernudd, Jernudd va Das Gupta, Bernstein, Prator, Markee). Bizningcha, til boshqaruvini nufuzli muassasalar faoliyati bilan cheklash unchalik ham to'g'ri emas.

Ko'pgina hollarda olimlar til siyosatiga bog'liq holda til taraqqiyotida amalga oshiriladigan harakatlarga nisbatan "rejalashtirish" va "boshqaruv" atamalarini qo'llaydilar. Aslida bu ikki tushunchaning semantik maydonida o'xshash semalar bilan bir qatorda farqli ma'nolar ham mavjud. Biz "rejalashtirish" emas, balki "boshqaruv" atamasini qo'lash to'g'ri deb hisoblashimizni ta'kidlamoqchimiz. Bizningcha, u hodisaning mohiyatini to'laroq qamrab oladi.

Adabiyotlar

Cooper Robert L. 1989. (Transferred to digital printing 2000). *Language planning and social change*. Cambridge. Cambridge University Press.

Das Gupta Jyotirindra. 1973. "Language planning and public policy: analytical outline of the policy process related to language planning in India". In Roger Shuy (Ed.), *Report of the Twenty-Third Annual Round Table Meeting on Linguistics and Language Studies* 157-165. Washington: Georgetown University Press.

Fishman Joshua A. 1974(b). "Language modernization and planning in

- comparison with other types of national modernization and planning". In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in Language Planning*. pp. 79-102. The Hague: Mouton.
- Gorman Thomas P. 1973. "Language allocation and language planning in a developing nation". In Joan Rubin and Roger Shuy (Eds.), *Language Planning: current issues and research*. Washington: Georgetown University Press.
- Hall Robert A. Jr. 1951. "American linguistics, 1925-1950". *Archivum Linguisticum* 4 (1): 1-16; (2): 41- 43.
- Haugen Einar. 1959. "Planning for a standard language in modern Norway". *Anthropological Linguistics*, 1(3): 8-21.
- Haugen Einar. 1966. "Linguistics and language planning". In William Bright (Ed.), *Sociolinguistics: proceedings of the UCLA Sociolinguistics Conference*, 50-71. The Hague: Mouton.
- Haugen Einar. 1969. "Language planning, theory and practice". In A. Graur (Ed.), *Actes du Xe Congres International des Linguistes* 1: 701-711. Bucarest, 28 Aout - 2 Septembre 1967. Bucarest: Editions de L'Academie de la Republique Socialiste de Roumanie.
- Jernudd Bjorn and Neustupny, Jiri V. 1987. "Language planning: For whom?" In L.LaForge (ed.), *Proceedings of the international colloquium on language planning* (pp. 69-84), Quebec, Canada: Presses de l'Universite' Laval.
- Jernudd Bjorn H. 1997. "The (r)evolution of sociolinguistics". In Christina Bratt Paulston and G. Richard Tucker (eds.), *The early days of sociolinguistics* 131-138. Dallas, TX: Summer Institute of Linguistics.
- Jernudd Bjorn H. and Jyotirindra Das Gupta. 1971. "Towards a theory of language planning". In Joan Rubin and Bjorn H. Jernudd (Eds.), *Can Language Be Planned?: sociolinguistic theory and practice for developing nations*, 195-215. The Hague: Mouton.
- Karam Francis X. 1974. "Toward a definition of language planning". In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in Language Planning*. pp. 103-124. The Hague: Mouton.
- Markee Numa Piers Philip. 1986. Unpublished prospectus for a dissertation in applied linguistics: an appropriate technology model of communicative course design. Submitted to the Applied Linguistics Program, University of California at Los Angeles.
- Miller George A. 1950. "Language engineering". *Journal of the Acoustical Society of America*, 22(6): 720-725.
- Nekvapil Jiri. 2006. "From language planning to language management". *Sociolinguistica* 20: 92-104.
- Neustupny Jiff V. 1983. "Towards a paradigm for language planning". *Language Planning Newsletter*. 9 (4): 1-4.
- Noss Richard. 1967. Language Policy and Higher Education. Vol. 3, part 2 of Higher Education and Development in Southeast Asia. Paris: UNESCO and the International Association of Universities.
- Rubin Joan and Bjorn H. Jernudd (Eds.). I971(b). "Introduction: language planning as an element in modernization". In Joan Rubin

- and Bjorn H. Jernudd (Eds.), *Can Language Be Planned? sociolinguistic theory and practice for developing nations.* pp. 8-24. Honolulu: The University Press of Hawaii.
- Tauli Valter. 1974. "The theory of language planning". In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in Language Planning.* pp. 49-67. The Hague: Mouton.
- Thorburn Thomas. 1971. "Cost-benefit analysis in language planning". In Joan Rubin and Bjorn H. Jernudd (Eds.), *Can Language Be Planned? sociolinguistic theory and practice for developing nations.* pp. 251-262. Honolulu: The University Press of Hawaii.
- Weinstein Brian. 1980. "Language planning in Francophone Africa". *Language Problems and Language Planning.* 4(1): 55-77.

Lingvopolitical approaches to the concepts of language management and language planning

Rafiqjon Zaripov¹

Abstract

In this small study, in addition to the descriptions of the terms language management, language planning, the contents of language engineering, glottopolitics, language development, language regulation units are covered in detail, and the concepts of language management, language planning from the perspective of various disciplines, linguistics, politics and management are analyzed, the definitions presented in them are integrated, and the general interdisciplinary nature of the concepts of language management and language planning is revealed. Also, based on the views of a number of world linguists, sociologists, communication specialists and political scientists, language planning is related to linguistic criteria, its organization is carried out depending on communication problems, the term language planning and its associated meanings are directly related to society. it is proved and certain conclusions are given.

Key words: *language management, language planning, linguistic political approach, language engineering, glottopolitics, language development, language regulation.*

